

BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHIDA OILA VA MTT TARBIYACHISINING O‘RNI

Azamova M.N.¹, Artikova N.²

¹*Toshkent KIMYO xalqaro universiteti dotsenti, PhD*

²*Toshkent KIMYO xalqaro universiteti 2-bosqich magistranti*

²*E-mail: nodiraartikova63@gmail.com*

Annotatsiya: Maqola shaxs shakllanishida oila institutining asosiy vazifalari sifatida ta’lim va tarbiyani milliy qadriyatlar asosida shakllantirish masalalari o‘rganilgan. Bundan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptive intellektni erta rivojlantirish masalalarida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlari: shaxs psixologiyasi, muloqot maromi, milliy tarbiya, ta’lim, oilaviy munosabatlar.

KIRISH

Oiladagi tarbiya muhiti oilaviy munosabatlar madaniyatiga bog‘liq. Ota-onalar bilan farzandlarning o‘zaro yaxshi munosabati, qariyalarga hurmat-e’tibor, farzandlarning o‘zaro munosabatlarining to‘g‘ri yo‘naltirilganligi, ota-onaning farzand tarbiyasiga o‘ta mas’ulligi, oilada o‘rnatilgan namunali tartib va ijobiy urf odatlar, ota-onaning mehnatga, ijtimoiy hayot hodisalariga to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi kabilar oilaviy munosabatlar madaniyatining nozik qirralaridir. Oilada bolaning ma’naviyati, ya’ni ahloqiy qiyofasi shakllanadi, ezgulik va yovuzlik, or-nomus va halollik, burch va mas’uliyat haqidagi tasavvurlari paydo bo‘ladi. Olib borilan tadqiqotlar tahliliga e’tibor qilsak, o‘zbek oilalarida farzand tarbiyasiga uning ma’naviyatiga katta e’tibor beriladi.

MASALANING QO‘YILISHI

Rossiya Fanlar akademiyasining muxbir a’zosi, psixologiya fanlari doktori Dmitriy Ushakovning yozishicha, zamonaviy dunyoda mehnat taqsimoti kuchayib bormoqda va shuning uchun individual yutuqlar tobora jamoaviylikka aylanib bormoqda. Muvaffaqiyatga erishish uchun esa, bugungi kunda o‘z sohangizning professional bo‘lishning o‘zi yetarli emas. Adaptiv intellektda intuitsiya va shaxsiy sifatlar asosiy rol ni o‘ynaydi. Aslida, adaptiv intellekt insonning odamlarni va kundalik vaziyatlarni qanchalik tushunishining ko‘rsatkichi hisoblanadi. Odatiy hayotda bunday ko‘nikmalarni moslashuvchanlik va sog‘lom fikrlash deb atashadi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, ijtimoiy intellekt yuqori aqliy daraja bilan o‘lchanmaydi.

Murakkab hayotiy yoki ilmiy masalani ko‘p kuch sarflamay, yengil, qisqa usulda yecha olgan, muvaffaqiyatga erishgan kishiga biz aqlli deymiz. Bu odam hayotda ko‘proq yutadi, yuqori saviyada hayot tarzini kechira oladi. Bugungi kunda jamiyatda insonning ma’naviyat bilan sug‘orilgan intellektual xususiyatlari har qachongidanda ko‘proq qadrlana boshlandi. Bu xususiyat o‘z navbatida insondan jamiyat rivojiga hissa qo‘shadigan yaratuvchanlik hamda tarbiyaviylikka asoslangan shaxs sifatlarining qadri ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Jahonda oilaga nisbatan jamiyatning asosiy bo‘g‘ini sifatida insoniy qadriyatlar, madaniyat va avlodlarning tarixiy davomiyligi, barqarorlik va rivojlanish omili sifatida qarash har doim mavjud bo‘lgan. Oxirgi o‘n yilliklarda ko‘plab davlatlarda zamonaviy oilalar inqirozi kuzatilayapti. Ushbu inqiroz sabablari sifatida: tug‘ilishning pasayishi, shaxslataro munosabatlarning buzilishi, noto‘liq oilalarning ko‘payishi, ikkinchi va qayta oilalarning barpo bo‘lishi, nikohsiz farzandlarning tug‘ilishi kuzatish mumkin. Ilgari oilalarni tashqi va formal faktorlar (qonun, ahloqiy normalar, jamiyat fikri va shu kabilar) birlashtirgan bo‘lsa, bugungi kunda oilalar o‘zaro tushunish, xurmat, simpatiya asosida qurilayotganini ko‘plab ma’lumotlarning mavjud ekanligi dalolat beradi.

Yangi asr oilasi uchun eng nojoiz xususiyat oilaning notinchligidir. Oiladagi osoyishta, bir maromdagi tadrijiy hayot tarzining buzulishi, oilaga gina-kudrat, urush-janjal, ayrilish va hijron kabi turli xil falokatlarining yog‘ilishi shu oila a‘zolari uchungina emas, balki shu oila yashab turgan jamiyat uchun ham ko‘ngilsiz hodisadir.

Adaptiv shaxs - o‘zgaruvchan sharoitlarga, yangi talablarga va kutilmagan vaziyatlarga tez va samarali moslashishga, samarali echimlarni topishga va ichki barqarorlikni saqlashga qodir bo‘lgan moslashuvchan va bardoshli shaxs. U moslashuvchan fikrlash qobiliyatiga ega, yangi tajribalarga ochiq, ijodiy, qiyinchiliklar oldida vahima qo‘ymaydi, yangi ma‘lumotlar asosida o‘z fikri va harakatlarini moslashtira oladi. Moslashuvchan shaxsning asosiy xususiyatlari:

Moslashuvchanlik: bitta variantda turib olishdan ko‘ra, vaziyatga qarab rejalar, strategiyalar va yondashuvlarni o‘zgartirish qobiliyati.

O‘zgarishlarga ochiqlik: o‘zgarishlarni qabul qilish, qiziquvchanlik va yangi bilimlarni o‘rganish va qo‘llashga tayyorlik.

Ijodkorlik: Innovatsion, original echimlarni topish va qiyin vaziyatlarda tajriba o‘tkazish qobiliyati.

Psixologik chidamlilik: stressni engish, ichki kuchni saqlab qolish va o‘zgarishlar oldida depressiya yoki nochorlikka qarshi turish qobiliyati.

Muammoni hal qilish qobiliyatlari: muammoli vaziyatlarga samarali yechim toping va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlarni normallashtiring.

O‘zgarishlarga ijobiy munosabat: o‘zgarishlarni to‘siqlar emas, balki imkoniyatlar sifatida ko‘ring.

Egiluvchanlik va adaptivlik odamlarga o‘zgarish, odatlardan voz kechish va vaziyat o‘zgarganda o‘zlarini sinab ko‘rish uchun energiya beradi. Hatto qiyinchiliklarga duch kelganda ham, bunday odamlar oldinga siljish va eng yaxshisiga intilish qobiliyatini saqlab qoladilar.

YECHISH USULI

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev xalq ta‘limi tizimini butunlay isloh qilish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydilar. Chunki, ayrim ota-onalar, xalq ta‘limi tizimi, mahalla faollari yoshlar tarbiyasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotgan shaxslar ta‘siridan bolalarni muhofaza etishda e‘tiborsizlik qilmoqdalar. Hech kimga sir emas, zo‘ravonlik, maishiy yengiltaklik va johillikni targ‘ib qiluvchi chet el filmlari mavjud ekan, g‘oyaviy zararsizlantirish, ularning yo‘lini to‘sis haqida jiddiy o‘ylab ko‘rish lozim. Adaptivlik qiziquvchanlik va kreativlikni kuchaytiradi, bu esa yaxshiroq echimlarni topishga va yuzaga keladigan muammolarni har tomonlama o‘rganishga yordam beradi. Yoshlarni yot g‘oya va mafkuralardan himoya qilishning eng asosiy negizi ularning ona yurtiga nisbatan imyon va moslashuvchanlikni kuchaytirishdir. Adaptiv inson nima qilayotganini, nima uchun aynan shu ishni qilayotganini juda yaxshi biladi. Ushbu kognitiv odat xato va muvaffaqiyatsizliklar haqida o‘ylamasdan, to‘siqlardan tashqariga qarashga yordam beradi. Ijodiy makonning ochilishi moslashuvchan shaxs faol foydalanadigan kengroq g‘oyalar va resurslarni taqdim etadi.

E‘tiqod egasi ilmga intiladi, o‘z oldiga bunyodkorlik g‘oyalar, maqsadlar qo‘yib, barkamol bo‘lishga tirishadi, g‘ayratlilik uning hayot tarziga aylanadi. Shuning uchun zamon, islohatlar bizdan moslashuvchanlik, kreativlik, fidoyilik, iroda, vijdon, qat‘iyat, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarni talab qilmoqda.

Tarbiyada tarbiyalanuvchilarning rivojlanishini yoshi, tipologik va individual hususiyatlarini hisobga olinishi qator pedagogik muammolarning oldini oladi. Masalan: bola yoshi oshib borgan sari ota-onadan uzoqlasha boradi va o‘smirlik davrida buzg‘unchi g‘oyalarga kirib ketish havfi tug‘iladi. Oilaviy sharoiti nochor bo‘lgan bola ota-onalaridan norozi bo‘lib, 14-15 yoshga yetganda oilasidan, ota-onasidan har xil kamchiliklar topib, ayblay boshlaydi, ya‘ni unda oppozitsion – muxolif fikr tug‘iladi. Yoshlikdagi ota-ona noroziligi ulg‘aygan sari jamiyatga, davlatga qarshi buzg‘unchi g‘oyalarga aylanishi mumkin. Oilada ota-onalar, farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch buzg‘unchi g‘oyalarning oldini oladi. Oilalarda o‘tkazilgan suhbatlarimizda ota-onalar bolasiga noto‘g‘ri ayb qo‘yib ota-onaga nisbatan ishonchini so‘ndirmaslik kerakligi haqida gapirdilar. Oila va mahalla

tomonidan yo‘l qo‘yilgan arzimasi xato kamchilik bolada odamga nisbatan ishonch tuyg‘usini so‘nishiga, unga ishonadigan odamlarni ko‘chadan izlashga olib keladi.

Milliy tarbiyada oila va onaning savodxonligining alohida o‘rni va nufuzini hisobga olib, xotin-qizlarning bola tarbiyasi va oilaviy ro‘zg‘or ishlarini yuritish borasidagi bilimdonliklarini takomillashtirib borish; «onalar maktablari» tashkil etish ham katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi. Mamlakatimizda ayollarga bildirilgan yuksak ishonchning zahirida ularga xos buyuk onalik mehr-muhabbati, mafkuraviy tarbiyaga qo‘shajak kuch-g‘ayratlari, noyob iste’dodlari yotadi. Jahon madaniyati va ma’naviyatiga katta hissa qo‘shgan Al-Xorazmiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Ahmad Farg‘oniy, Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Al-Marg‘inoniy larni dunyoga keltirib, tarbiya bergan momolarimizning vorislari bo‘lgan zamonaviy ayollar ham sog‘lom fikrlovchi, O‘zbekiston taraqqiyoti uchun butun bilim va iqtidorini ayamaydigan yoshlarni tarbiyalab berishlariga shubha yo‘q. Bizning jamiyatimizda oilalarga va ayollarga ko‘rsatilayotgan yuksak ehtromlarning asosida ham ularning fidoiyligini tan olish, mafkuraviy ishlarning muvaffaqiyatida ular did va farosatini e’tirof etish yotadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda adaptiv intellekt egiluvchan fikrlash, qiziquvchanlik va mustaqillikni rivojlantirish orqali rivojlanadi. Bunga ota-onalarning yordami orqali erishiladi, bu bolalarga tanlov qilish va oqibatlarga duch kelish imkonini beradi, shuningdek, bolalarni tanish muammolarga innovatsion echimlarni izlashga undaydigan o‘yin mexanikasini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Oilada ota-ona maktabgacha yoshdagi bolalar adaptiv intellektini rivojlantirishi uchun qanday tavsiyalar berish mumkin? Maktabgacha yoshdagi bolalar adaptiv intellektini rivojlantirish albatta ota-onalarni bolalariga bo‘lgan munosabati, yaratilayotgan imkoniyat, birgalikdagi faoliyatga bog‘liq. Gadjetlardan foydalanishni cheklash, real hayotdagi muloqotni rag‘batlantirish, jismoniy faollik va kitobxonlikni rag‘batlantirish muhim ahamiyatga ega. Farzandingizga o‘zini tushunishni o‘rganishga yordam berish uchun ular boshdan kechirayotgan his-tuyg‘ularini og‘zaki ifoda etish lozim. Adaptivlik tug‘madir - bu bizga yangi muhitda omon qolish imkonini beradi. Ammo agar bola qiyinchiliklardan qochsa, ularni engib o‘tolmasa va ruxsat bersa yoki ota-onalar ularni haddan tashqari himoya qilsalar, ularning moslashuvchan aqli zaiflashadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kuchli globallashtiruv davrida axborot oqimi va iformatsion stresslar jarayonida hissiy-emotsional balansni saqlab turishda va insonning jamiyatga moslashib borishida oila muhitida shakllanadigan adaptiv intellektning o‘rni muhimdir. Oilada ota-ona, MTTda tarbiyachining adaptivligi bolada adaptive intellektni rivojlantirishning asosiy manbai. Zero, hamkorlikdagi faoliyat barkamol shaxs rivojlanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G‘.B.Shoumarov, I.O.Haydarov “Oila psixologiyasi” o‘quv qo‘l. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun. 2008 y. “SHarq” nashriyoti.
2. Ijtimoiy psixologiya. V.Karimova 2007-B. 100 Golubeva E. V. Ota-onalar va bolalar munosabatlari turlarining diagnostikasi // Rossiya psixologiya jurnali. - 2009. - T. 6. - S. 25